

**ZAMONAVIY DARSLARDA INTERAKTIV USULLARNING AHAMIYATI***Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna**Samarqand davlat pedagogika instituti  
o‘qituvchisi n\_mirzoyeva@gmail.ru**Abdisamatov Ozodbek**Samarqand davlat pedagogika instituti  
talabasi o\_abdisamatovo@gmail.ru***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada zamonaviy darslarda interaktiv o‘qitish usullarining ahamiyati, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qo‘shgan hissasi keng ilmiy asosda tahlil qilinadi. Interaktiv usullar tushunchasi, asosiy tamoyillari, afzalliklari hamda amaliy qo‘llanilishi xalqaro tadqiqotlar va ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlarning roli ilmiy faktlar bilan asoslab berilgan. Shuningdek, tibbiyat va boshqa sohalardagi o‘qitishda interaktiv metodlarning real misollari keltirilgan. Maqola zamonaviy ta’limda faol pedagogik yondashuvlar bilan ishlovchi o‘qituvchilar, metodistlar va ta’lim mutaxassislari uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik, interaktivlik, qo‘llash mahorati, tanqidiy fikrlash, motivatsiya, o‘zaro hamkorlik, dars samaradorligi, zamonaviy ta’lim, ta’lim sifatini oshirish.

**Kirish:** XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub islohotlar natijasida o‘qitish metodlariga bo‘lgan yondashuv ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An’anaviy dars shakllarining o‘rnini zamonaviy, interaktiv metodlar egallab bormoqda. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi hamda o‘rganilayotgan bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Interaktiv ta’lim tushunchasi — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama faol muloqotga asoslangan ta’lim usuli bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtiroy etadi, savol beradi, fikr bildiradi, bahs yuritadi. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘z fikrini asoslab berish, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interaktiv metodlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- 1.O‘quvchi faolligi;
- 2.Hamkorlikda o‘rganish;
- 3.Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

4.Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;

5.Ijtimoiy-muloqot kompetensiyalarini shakllantirish.

Interaktiv metodlarning afzalliklari: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv usullar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Problemali vaziyatlar “aqliy hujum” metodlari orqali o‘quvchilar o‘z fikrini asoslashga, muammoga turli nuqtai nazardan yondashishga o‘rganadi. O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish borasida Abdel Meguid va Collins (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda interaktiv metodlar asosida o‘qitilgan talabalar an’anaviy usullar bilan o‘qitilgan talabalarga nisbatan o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirgani, dars jarayonida faol ishtirok etgani va o‘quvga bo‘lgan ijobiy munosabati yuqori bo‘lgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv yondashuvlar nafaqat bilimlarni puxta egallahsga, balki o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishga ham katta hissa qo‘shadi. Undan tashqari ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar muammolarni tahlil qilish, ulardan kerakli xulosalar chiqarish hamda amaliyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatish, yo‘l-yo‘riq berish va eng maqbul xulosani topishga yordam berishdan iboratdir. Interaktiv metodlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, o‘qituvchi hech qachon o‘quvchining fikrini rad etmaydi. U vaqt kelib, to‘g‘ri yondashuvni taklif etadi, bu orqali o‘quvchi o‘z xatosini mustaqil anglab yetadi. Bu jarayon o‘quvchilarda erkin fikrlash, tahlil qilish, o‘z fikrini ochiq bayon etish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi va shu bilan birga psixologik tazyiqlarsiz o‘zligini anglashga imkon yaratadi. Interaktiv metodlar orqali ta’lim va tarbiya bir vaqtda olib boriladi. Chunki bu metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan. O‘qituvchi o‘quvchining fikrini tinglab, unga hurmat bilan yondashadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda ham o‘zaro tinglash madaniyatini shakllantiradi. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘zini qadrlanganini his etadi va o‘z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi. Interaktiv dars metodlarini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi, avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib chiqishi lozim. Bu esa interaktiv strategiya va usullardan xabardor bo‘lishni talab qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu kabi metodlar o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolligini oshirib, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. "Interaktiv" so‘zi ingliz tilidagi "interaction" so‘zidan olingan bo‘lib, "o‘zaro ta’sir" ma’nosini anglatadi. Bu metodlar muhokama, muloqot va birgalikda fikrlash orqali bilim olish jarayonini tashkil etadi. Ba’zi adabiyotlarda ushbu metodlar "interfaol o‘qitish" deb ham yuritiladi.

Interaktiv metodlar quyidagi asosiy maqsadlarga ega:

1. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol muloqotni yo‘lga qo‘yish;

2. O‘zaro fikr almashinuvini ta’minalash;

3. O‘quvchilarning bilim olish, eslab qolish va uni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish.

Bugungi kunda interaktiv metodlarning quyidagi turlari keng qo‘llaniladi:

1. Aqliy hujum (brainstorming);
2. Jamoaviy o‘qitish usuli;
3. Kichik guruhlarda ishslash;
4. O‘yinli o‘qitish;
5. Muloqot metodi;
6. “Bumerang” usuli;
7. Tarmoq metodi;
8. Boshqaruv metodi va boshqalar.

Shular orasida aqliy hujum eng mashhur metodlardan biri sanaladi. Bu usul orqali o‘quvchilar tez fikrlash, fikrlar xilma-xilligini namoyon etish va guruhda ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu tariqa boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarda innovatsion yondashuv va erkin tafakkurga asoslangan bilim olish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi. Ammo, afsuski, barcha umumta’lim mакtablarida ham interaktiv metodlardan keng foydalanilmayapti. O‘quvchi va o‘qituvchining teng faol ishtirokini tashkil etish hali ham murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, interaktiv metodlardan foydalanishni ta’lim tizimining dolzarb masalasi sifatida ko‘rish lozim. Xususan, boshlang‘ich sinflarda interaktiv dars usullari o‘quvchilarni qiziqtirish, motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashga undash va ularni o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘yinlar, animatsiyalar, elektron darsliklar, guruhlarda ishslash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi yondashuvlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Shunday qilib, interaktiv metodlar o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, ularni hayotga tayyorlash va zamonaviy jamiyat talablari asosida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy darslarda interaktiv metodlarning ahamiyati: Ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish bevosita darsda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning samaradorligiga bog‘liqdir. Dars davomida o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublar o‘quvchilarning bilim darajasi, dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning dars jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, mustaqil izlanishga, erkin fikrlashga undash — zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifalaridandir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, interaktiv metodlar o‘quvchilarni faollikka chorlaydi, ularni dars jarayoniga faol jalb qiladi va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar bilimni nafaqat eshitish, balki ko‘rish, ifodalash va amaliyot orqali ham puxta egallaydilar. Shuning uchun ham darsda vizual materiallar, tajribalar, o‘yinli usullar, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar yaratish, guruhlarda ishslash kabi

interaktiv metodlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, muloqotga kirisha olish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida ularning bilimni chuqur va ongli ravishda o'zlashtirishlariga zamin yaratadi. Zamonaviy o'qituvchi o'z fanini mukammal bilish bilan birga, uni boshqa fanlar bilan bog'lab tushuntira olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni puxta egallagan bo'lishi lozim. U nafaqat o'rgatuvchi, balki o'quvchining o'rganish jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida o'qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi ham muhim omildir. Kompyuter, videorolik, grafik materiallar, elektron tajribalar va boshqa texnik vositalar darsni qiziqarli va samarali o'tishga xizmat qiladi. Ayniqsa, elektron laboratoriya ishlari o'quvchilarda informatsion savodxonlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi, ijtimoiy va axloqiy fazilatlari rivojlanadi, ularning individual qobiliyatları yuzaga chiqadi. Bu metodlar bolalarda sog'lom raqobat muhitini yaratadi, ularni o'z fikrini ifodalashga va o'z-o'zini baholashga o'rgatadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Endilikda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va amaliy faoliyatga yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda interaktiv metodlar asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan faol hamkorlikda ishlashi, ularni tinglashi va fikrlarini inobatga olishi natijasida o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish ortadi va bilimlar chuqurroq o'zlashtiriladi. Interaktiv metodlar shunday tashkil qilinadiki, unda o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladilar va darsda faol qatnashadilar. Bunday metodlar orqali o'quvchilarning shaxsiy fikr bildirishi, guruh bo'lib ishlashi, mustaqil xulosa chiqarishi va amaliy bilimlarni qo'llay olishi ta'minlanadi. Ko'plab darslarida bu metodlar nihoyatda samarali bo'lib, murakkab tushunchalarni osonroq anglash va real hayotdagi voqealar bilan bog'lash imkonini beradi. O'qituvchi interaktiv metodlardan foydalanganda, u sinfda muloqotni jonlantiradi, o'quvchilar o'rtasida do'stona muhit yaratadi hamda har bir o'quvchining darsdagi ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni bilim olishga yanada faol jalb qiladi.

Ilm-fanga bo'lgan qiziqish va e'tibor nafaqat zamonaviy davr talabi, balki IX-X asrlardan boshlab shakllangan muhim masalalardan biri sanaladi. Masalan, buyuk alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning didaktik qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, u bilim olish jarayonida talabaning shaxsiy kuzatishlari va o'rgangan bilimlaridan samarali foydalanishiga katta e'tibor bergen. Al-Xorazmiy ilm egallahda bilim manbalarini izlab topish, o'rganish va ularni boshqalarga tushuntirib

bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini uqtiradi. U o‘zining mashhur “Al-Jabr val-Muqobala” asarida olimlarni uch toifaga ajratadi: birinchi toifa — o‘zidan avvalgi olimlar qilgan ishlarni yanada rivojlantirib, ortda qoluvchilarga meros qoldiruvchi; ikkinchisi — o‘tmishdagi ilmiy merosni sharhlab, uni oson va tushunarli holga keltiruvchi; uchinchisi esa — ilmiy yutuqlarni to‘plovchi, lekin avvalgi olimlar mehnatini e’tirof qilmaydiganlar. Al-Xorazmiy fikrlari o‘sha davr ilmiy-tadqiqot faoliyatları va ta’lim metodları haqida muhim ma’lumot beradi.

Yana bir buyuk mutafakkir — Abu Ali ibn Sino ilm egallashni komillikka erishishning eng maqbul yo‘li deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, bilimsiz kishilar haqiqatni anglay olmaydi, ilm esa mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatuv va tajriba asosida egallanadi. Ibn Sino bolalarning jamoa bo‘lib ta’lim olishining afzalliklarini ham ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, qaysi ta’lim metodidan foydalanilmasin, asosiy maqsad — o‘quvchida mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va o‘z bilimini amaliyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Buyuk ajdodlarimiz ilgari surgan ushbu pedagogik g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini tinglaydi, ularning erkin fikrashi, savollar berishi, muammolarni tahlil qilishi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etishiga imkon yaratadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni o‘zaro tinglash, hamfikrlikda ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrashiga o‘rgatadi. Interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilar tomonidan faol qabul qilinadi, ular o‘zlarini qadrlangan deb his qilishadi, bu esa ta’lim jarayoniga qiziqishni yanada oshiradi. Ta’lim samaradorligini ta’minlashda darsning texnologik loyihasini tuzish va interaktiv metodlar strategiyasini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar mohiyatiga ko‘ra, o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtiroki, fikr almashuvi, bahsmunozara olib borish orqali muammoni hal etishga yo‘naltirilgan. Demak, o‘qitish jarayoni bevosita o‘qitish metodi bilan bog‘liq bo‘lib, interaktiv yondashuv metod sifatida o‘zining dolzarb vazifasini bajaradi.

**Xulosa:** Mazkur tahlil asosida interaktiv metodlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni, ularning mazmun-mohiyati yoritib berildi. Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarda:

- 1.Muammolarni tahlil qilish;
- 2.Savol berish va muammoga yechim topish;
- 3.Mantiqiy va analitik fikrash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etish, mustaqil fikrash, o‘z fikrini erkin bayon etish, kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish kabi jihatlarga ega bo‘ladilar. Ko‘plab fanlarni o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, mustahkam bilimlar shakllanishi va amaliy ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga yordam beradi. Zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv metodlarning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Interaktiv

yondashuvlar o‘quv jarayonini faollashtirib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini ochiq ifoda etishi, muloqotga kirisha olishi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun interaktiv metodlar darsni qiziqarli, tushunarli va samarali o‘tkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy va tarixiy manbalarni o‘rganish asosida, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar pedagogik qarashlarida ham interaktiv yondashuv unsurlari mavjudligi aniqlanib, bu bizning xalqimizda ta’lim jarayoni qadimdan faollik va muloqot asosida qurilganini ko‘rsatadi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Очилов М. Янги педагогик технологиялар Ўқув қўлланма. - Нафас 2000.
2. Azizzodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi – Т. 2000.
3. Xo‘jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – Т.: 2003. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi —Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari
4. У.Т.Усаров, М.Н.Бобокулова —Замонавий педагогик технологияларни ўқув жараёнига қўллаш Самарқанд-2008
5. Ишматов К. Педагогик маҳорат асослари. Наманган, НамМПИ. 2005
6. Эшбекова, С. О., Ибрагимов, Ж. К., Ашурев, Н. Р., & Хакбердиев, Э. О. (2020). НАНКОМПОЗИТЫ НА ОСНОВЕ ПОЛИПРОПИЛЕНА. «Узбекский физический журнал», 22(6), 369-373.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Т., O’zMU
8. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Т.:O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
9. Saidaxmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003 y.
1. 10.Ishmuhamedov R.,va boshq.Ta’limda innovatsion T: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009 y.
- 10.Nuraliyeva N. B. Boshlang‘ich ta’limda triz-texnikasini qo’llanishi | journal of new century innovations 1.Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Journal of new century innovations | Volume-7 |79-80-betlar.